

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AYLANMA MABLAG'LAR TARKIBIY TUZILISHINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich
Namangan Davlat Texnika Universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida aylanma mablag'larning tarkibiy tuzilishining kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Kichik biznes milliy iqtisodiyotning muhim qismi sifatida, raqamli transformatsiya jarayonida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda aylanma mablag'larning optimal tuzilishi zarur. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aylanma mablag'lar, kichik biznes, moliyaviy barqarorlik, raqamli iqtisodiyot, fintech, elektron to'lovlar, likvidlik koeffitsientlari, debitorlik qarzlari, tovar-moddiy zahiralari, moliyaviy boshqaruv, korxona samaradorligi, raqamli texnologiyalar

Аннотация. В данной статье проведен глубокий анализ влияния структурного состава оборотных средств на финансовую устойчивость субъектов малого бизнеса в условиях цифровой экономики. Малый бизнес как важная часть национальной экономики требует оптимальной структуры оборотных средств для обеспечения финансовой устойчивости в процессе цифровой трансформации. Также разработаны практические рекомендации для субъектов малого бизнеса в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: оборотные средства, малый бизнес, финансовая устойчивость, цифровая экономика, финтех, электронные платежи, коэффициенты ликвидности, дебиторская задолженность, товарно-материальные запасы, финансовое управление, эффективность предприятия, цифровые технологии

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the impact of the structural composition of working capital on the financial stability of small business entities in the digital economy. Small business, as an important part of the national economy, requires an optimal structure of working capital to ensure financial stability during the digital transformation process. Practical recommendations for small business entities in the digital economy have also been developed.

Keywords: working capital, small business, financial stability, digital economy, fintech, electronic payments, liquidity ratios, accounts receivable, inventory, financial management, enterprise efficiency, digital technologies

Kirish. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning muhim qismi hisoblanadi. Raqamli transformatsiya

jarayonlari ularning moliyaviy barqarorligi nafaqat o'z faoliyatlarining samaradorligini, balki butun iqtisodiy tizimning raqamli rivojlanishini ham belgilaydi. Aylanma mablag'lar tarkibiy tuzilishi raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes korxonalarining likvidlik darajasi, to'lov qobiliyati va moliyaviy mustaqilligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. [3]

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida aylanma mablag'lar korxonaning joriy faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bo'lib, ularning boshqaruvida zamonaviy raqamli texnologiyalar muhim rol o'ynaydi [1]. Ularning tarkibiy tuzilishi korxonaning raqamli strategik yo'nalishlarini, boshqaruv sifatini va raqobatbardoshligini aks ettiradi. Kichik biznes subyektlari uchun raqamli texnologiyalar yordamida aylanma mablag'larning optimal tuzilishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartlaridan biridir [5].

Aylanma mablag'lar tarkibiy tuzilishi korxonaning moliyaviy strategiyasining muhim elementi hisoblanadi. Klassik moliyaviy nazariyaga ko'ra, aylanma mablag'lar uch asosiy komponentdan iborat: pul mablag'lari va ekvivalentlari, debitorlik qarzlari va tovar-moddiy zahiralari. Har bir komponentning o'ziga xos funktsiyalari va moliyaviy barqarorlikka ta'siri mavjud.[4]

Pul mablag'lari va ekvivalentlari korxonaning eng likvidli aktivlarini tashkil etib, ular to'g'ridan-to'g'ri to'lov qobiliyatini ta'minlaydi va moliyaviy ehtiyojlarni qondirish uchun zarurdir. Biroq, ortiqcha pul mablag'lari tutish rentabellik darajasini pasaytirishi mumkin, chunki ular kam daromad keltiradi.

Debitorlik qarzlari sotuvdan kelib chiqadigan va kelajakda pul mablag'lari shaklida qaytarib olinadigan talablardir. Ularning miqdori va sifati korxonaning pul oqimlarini bevosita ta'sir qiladi. Debitorlik qarzlarning yuqori darajasi likvidlik muammolariga olib kelishi mumkin.

Tovar-moddiy zahiralari ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz ta'minlash uchun zarur. Biroq, ortiqcha zahiralar korxonaning moliyaviy resurslarini bog'lab qo'yadi va saqlash xarajatlarini oshiradi. Zahiralarining optimal darajasini aniqlash muhim moliyaviy vazifalardan biridir.[2]

Aylanma mablag'lar tarkibiy tuzilishining optimallashtirish nazariyasi korxonaning faoliyat turiga, bozor sharoitlariga va moliyaviy imkoniyatlariga bog'liq. Zamonaviy yondashuvlar dinamik optimizatsiya usullarini qo'llash orqali aylanma mablag'lar tuzilishini doimiy ravishda moslashtirishni taklif etadi.[6]

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda aylanma mablag'lar tarkibiy tuzilishining kichik biznes subyektlari moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'rganish uchun keng qamrovli tahlil metodlari qo'llanilgan. Nazariy asoslarni shakllantirish maqsadida aylanma mablag'lar nazariyasi va moliyaviy barqarorlik kontseptsiyalari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Empirik tadqiqot qismida kichik biznes subyektlarining moliyaviy hisobotlari asosida aylanma mablag'lar tarkibiy nisbatlari va likvidlik ko'rsatkichlari hisoblangan. Kichik biznes subyektlarini moliyaviy barqarorlik darajasiga ko'ra guruhlariga ajratish maqsadida klaster tahlili o'tkazilgan. Tadqiqot natijalari asosida aylanma mablag'lar tuzilishini optimallashtirish bo'yicha

amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun sintez usulidan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy barqarorlik korxonaning uzoq muddatli faoliyat yuritish, moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish va rivojlanish uchun zarur resurslarni ta'minlash qobiliyatini bildiradi. Aylanma mablag'lar tuzilishi ushbu barqarorlikning muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Likvidlik koeffitsientlari orqali aylanma mablag'lar tuzilishining moliyaviy barqarorlikka ta'sirini baholash mumkin. Joriy likvidlik koeffitsienti (aylanma aktivlar/qisqa muddatli majburiyatlar) korxonaning qisqa muddatli to'lov qobiliyatini ko'rsatadi. Amaliyotdan kelib chiqib optimal qiymat 1,5-2,5 oralig'ida bo'lishi tavsiya etiladi.

Tez likvidlik koeffitsienti (aylanma aktivlar - zahiralar)/qisqa muddatli majburiyatlar) korxonaning zahiralarini sotishga bog'liq bo'lmagan holda to'lov qobiliyatini baholaydi. Ushbu ko'rsatkich kichik biznes uchun juda muhim, chunki zahiralar aylanish tezligi katta korxonalarga nisbatan past bo'lishi mumkin.

Mutloq likvidlik koeffitsienti (pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar/qisqa muddatli majburiyatlar) korxonaning darhol to'lov qobiliyatini ko'rsatadi. Kichik biznes uchun ushbu ko'rsatkich 0,2-0,5 oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiq.

Aylanma mablag'lar tuzilishining moliyaviy barqarorlikka ta'siri aylanish tezligi ko'rsatkichlari orqali ham baholanadi. Umumiy aylanma mablag'lar aylanish tezligi, debitorlik qarzlari va zahiralar aylanish tezligi korxonaning operatsion samaradorligini belgilaydi.[10]

“Ishchi kapitalni boshqarish” nazariyasiga ko'ra, aylanma mablag'lar tuzilishining optimallashtirish orqali korxonaning rentabelligi va likvidlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mumkin. Ushbu yondashuv kichik biznes uchun ayniqsa muhim, chunki ular cheklangan moliyaviy resurslarga ega.[7]

Kichik biznes subyektlari aylanma mablag'larni boshqarishda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.[8] Birinchidan, ular cheklangan moliyaviy resurslarga ega bo'lib, moliyaviy buferini saqlash imkoniyatlari cheklangan. Bu holat aylanma mablag'lar tuzilishini optimallashtirish zaruriyatini yanada kuchaytiradi.

Ikkinchidan, kichik biznes subyektlari katta korxonalarga nisbatan yuqori moliyaviy risk darajasiga ega. Bank kreditlari va boshqa moliyaviy manbalardan foydalanish qiyinroq va qimmatroq. Shu sababli, o'z mablag'larining optimal taqsimoti muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, kichik biznes korxonalari bozor o'zgarishlariga nisbatan sezgirroq. Talabning o'zgarishi, raqobatchilarning harakatlari yoki iqtisodiy inqirozlar ularning moliyaviy holatiga tezda ta'sir qiladi. Aylanma mablag'lar tuzilishi bunday o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini ta'minlashi kerak.

To'rtinchidan, kichik biznes rahbariyatining moliyaviy boshqaruv ko'nikmalari cheklangan bo'lishi mumkin. Professional moliyaviy menejerlar yollash qimmat, shu sababli aylanma mablag'lar boshqaruvi ko'pincha shahsiy qarorlarga asoslanadi.

Jadval**Kichik biznes subyektlari likvidlilik ko'rsatkichlarini baholash me'zonlari**

№	Ko'rsatkich nomi	Hisoblash usuli	Samaradorlik baholash me'zonlari
1	Joriy likvidlik koeffitsienti (L_J)	Aylanma aktivlar / qisqa muddatli majburiyatlar	$1.5 \leq L_J \leq 2.5$ bo'lsa optimal qiymat $L_J < 1.5$ bo'lsa Likvidlik yetishmovchik bor $L_J > 2.5$ resurslardan nosamarali foydalanilmoqda
2	Tez likvidlik koeffitsienti: (L_T)	(aylanma aktivlar - zahiralar) / qisqa muddatli majburiyatlar	$0.7 \leq L_T \leq 1.0$ bo'lsa optimal qiymat $L_T < 0.7$ bo'lsa moliyaviy qiyinchilik bor $L_T > 1.0$ bo'lsa moliyaviy holat yaxshi
3	Mutloq likvidlik koeffitsienti (L_a)	Pul mablag'lari va qisqa muddatli investitsiyalar/qisqa muddatli majburiyatlar	$0.2 \leq L_a \leq 0.5$ bo'lsa optimal qiymat $L_a < 0.2$ bo'lsa pul tanqisligi mavjud $L_a > 0.5$ bo'lsa pul mablag'lari ortiqcha (samarasiz)

Beshinchidan, kichik biznes subyektlari ko'pincha yetkazib beruvchilar bilan past muzokaralar olib borishadi va mijozlar tomonidan qo'llanilgan to'lov shartlarini qabul qilishga majbur bo'ladi. Bu debitorlik qarzlarining miqdori va mudatiga ta'sir qiladi.

Oltinchidan, kichik biznes korxonalari zamonaviy moliyaviy texnologiyalar va boshqaruv tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Bu aylanma mablag'larni monitoring qilish va optimallashtirish jarayonlarini murakkablashtiradi.

Kichik biznes subyektlarining aylanma mablag'lar tuzilishini tahlil qilish natijasida bir qator muhim xulosalar aniqlandi. Moliyaviy barqaror kichik biznes korxonalarida aylanma mablag'lar tuzilishi quyidagi xususiyatlarga ega:

Pul mablag'lari va ekvivalentlari umumiy aylanma mablag'larning 15-25% ini tashkil etadi. Bu nisbat korxonaga joriy majburiyatlarini bajarish va kutilmagan xarajatlarni qoplash imkoniyatini beradi. Ayni paytda, ortiqcha pul mablag'lari tutish rentabellikni pasaytirmaydi.

Debitorlik qarzlarini aylanma mablag'larning 30-40% ini tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning sotuv hajmi va to'lov shartlari bilan bog'liq. Moliyaviy barqaror korxonalar debitorlik qarzlarining aylanish tezligini 6-8 marotaba ta'minlaydi.

Tovar-moddiy zahiralarini aylanma mablag'larning 35-45% ini tashkil etadi. Zahiralarining optimal darajasi faoliyat turiga bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish korxonalarini uchun yuqoriroq, savdo korxonalarini uchun pastroq bo'ladi.

Korrelatsion tahlil natijalariga ko'ra, aylanma mablag'lar tuzilishining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari bilan kuchli bog'liqligi mavjud. Optimal tuzilishga ega korxonalar yuqori likvidlik koeffitsientlari va barqaror pul oqimlarini ta'minlaydi.

Regressiya tahlili shuni ko'rsatadiki, aylanma mablag'lar tuzilishining 1% yaxshilanishi moliyaviy barqarorlik indeksini 0,8% ga oshiradi. Bu bog'liqlik statistik jihatdan muhim va amaliy ahamiyatga ega.

Klaster tahlili natijasida kichik biznes subyektlarini uch guruhga bo'lish mumkin: yuqori moliyaviy barqarorlikka ega korxonalar (25%), o'rta darajadagi barqarorlikka ega korxonalar (50%) va past barqarorlikka ega korxonalar (25%). Har bir guruh uchun aylanma mablag'lar tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

Xulosa. Aylanma mablag'lar tarkibiy tuzilishining kichik biznes subyektlari moliyaviy barqarorligiga ta'siri fundamental ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, optimal tuzilishga ega korxonalar yuqori likvidlik darajasi, barqaror pul oqimlari va yaxshi moliyaviy ko'rsatkichlarga erishadi.

Kichik biznes subyektlari uchun aylanma mablag'lar tuzilishining optimal nisbatlari quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

№	Aylanma mablag'lar tarkibi	Tarkibiy tuzilishning eng optimal nisbati (foizda)
1	pul mablag'lari	15-25%
2	debitorlik qarzlari	25-30%
3	tovar-moddiy zahiralar	35-45%

Ushbu nisbatlar korxonaning faoliyat turiga va bozor sharoitlariga qarab moslashtirilishi mumkin.

Aylanma mablag'lar tuzilishini optimallashtirish orqali kichik biznes korxonalari o'z moliyaviy barqarorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bu esa ularning raqobatbardoshligini oshirish va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes subyektlari uchun aylanma mablag'lar tuzilishini optimallashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1) Aylanma mablag'lar tuzilishining muntazam monitoringi va tahlilini tashkil etish. Kichik biznes rahbariyati oylik davriylik asosida likvidlik koeffitsientlarini hisoblashi va optimal qiymatlar bilan solishtirishni amalga oshirishi kerak. Buning uchun soddalashtirilgan moliyaviy hisobot shakllari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

2) Pul mablag'lari boshqaruvini takomillashtirish. Kichik biznes korxonalari uchun pul mablag'larining minimal zarur miqdorini aniqlash metodikasi ishlab chiqildi. Ushbu metodika oylik operatsion xarajatlar, majburiyatlarning to'lov muddatlari va daromadlar tushuvi rejalari asosida minimal pul zahirasini hisoblashni ta'minlaydi.

3) Debitorlik qarzlari boshqarish tizimini takomillashtirish. Mijozlarning to'lov qobiliyatini baholash, to'lov shartlarini belgilash va qarzlarni undirishning samarali usullarini joriy etish kerak. Kichik biznes uchun soddalashtirilgan kredit-reyting tizimi ishlab chiqilishi tavsiya etiladi.

4) Zahiralar boshqaruvini optimallashtirish. ABC-tahlil usulidan foydalanib, eng muhim zahiralarini aniqlash va ular uchun optimal zaxira darajasini belgilash kerak. Shuningdek, yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarni yaxshilash orqali zahiralar aylanish tezligini oshirish mumkin.

5) Moliyaviy rejalashtirish tizimini yaratish. Kichik biznes korxonalari uchun

qisqa muddatli (3-6 oy) moliyaviy rejalar ishlab chiqish va pul oqimlarini prognozlash zarur. Bu aylanma mablag'lar ehtiyojlarini oldindan aniqlash va optimal tuzilishni saqlash imkoniyatini beradi.

6) Moliyaviy ko'rsatkichlarni avtomatlashtirish. Zamonaviy moliyaviy dasturiy ta'minot va mobil ilovalardan foydalanib, aylanma mablag'lar tuzilishini real vaqtda monitoring qilish tizimini joriy etish kerak. Bu kichik biznes rahbariyatiga tez qaror qabul qilish imkoniyatini beradi.

7) Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish. Kichik biznes rahbariyati uchun aylanma mablag'lar boshqaruvi bo'yicha maxsus treninglar va seminarlar o'tkazish zarur. Bu professional bilimlarni oshirish va optimal qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliy jihatdan amalga oshirilishi mumkin va kichik biznes subyektlarining moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish va yangi moliyaviy texnologiyalarni joriy etish orqali yanada yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бучик Т.А.(2009) “Оборотный капитал и его влияние на финансовую устойчивость предприятия”.-Гомель юбилейная научно-практическая конференция 2009, 28-31с.

2. Voxobov A., Ibroximov A., Ishonqulov N., “Moliyaviy va boshqaruv taxlili”. – Toshkent: “Sharq” Nashriyot – matbaa AK, 2005y.

3. Гараев И.И. Особенности управления основным капиталом предприятия. Modern Science.2021. № 1-2. С. 41-42.

4. Орехов С.А. Управление основным капиталом предприятия. Молодеж и наука. 2016. № 4.С. 156 б.

5. Пешкова Е.П., Мамбетова А.А. (2013) “Влияние структуры оборотных средств на показатели финансового состояния организации”.- Вестник Таганрогского института управления и экономики №2/2013, 19-21с.

6. Altaf, N., Shah, F.A. (2018). Working capital financing, firm performance and financial constraints: Empirical evidence from India. International Journal of Managerial Finance, 14(4), 464-477.

7. Brigham, E.F., Houston, J.F. (2021). Fundamentals of Financial Management (15th ed.). Cengage Learning.

8. Howorth, C., Westhead, P. (2003). The focus of working capital management in UK small firms. Management Accounting Research, 14(2), 94-111.

9. Harford, J., Mansi, S.A., Maxwell, W.F. (2008). Corporate governance and firm cash holdings in the US. Journal of Financial Economics, 87(3), 535-555.

10. Padachi, K. (2006). Trends in working capital management and its impact on firms' performance: an analysis of Mauritian small manufacturing firms. International Review of Business Research Papers, 2(2), 45-58.